XALQ DEPUTATLARI PARKENT TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 27 - dekabr VI-60-139-10-141-K/22 Parkent tumani hokimligi

Parkent tumanidagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 31-avgustdagi Toshkent viloyati hokimi nomiga kiritgan 08-08403-sonli xati va xatga ilova qilingan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2022-yil avgustdagi yig‘ilish bayoni va “Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini shuningdek, “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 29-avgustdagi 1/SHX-3-5424-sonli yig‘ilish bayonlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining“ Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Parkent tumani hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” raisining o‘rinbosari A.Abdumutalovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 27- sentabrdagi Toshkent viloyati hokimi nomiga kiritgan 08-08403-sonli xati va xatga ilova qilingan Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2022-yil sentabrdagi yig‘ilish bayoni va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan tumandagi mahalla fuqarolari yig‘inlarida joylashgan geografik obyektlar (ko‘cha, maydon, istirohat bo‘g‘i, xiyobon, ziyoratgoh, qabriston) nomlari qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari B.Soatov, tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i R.Tojiboyev 1 oy muddatda ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida o‘zgargan ko‘chalarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma bosqich o‘rnatish, almashtirish, barcha mahalla fuqarolar yig‘ini tizimidagi ish yurituv hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda Parkent tumani hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” (A.Abdumutalov)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi, tuman FHDYO bo‘limi, tuman IIB, tuman Qurilish bo‘limi boshlig‘i A.Ismatullayev, Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘I A.Rahimboyev, Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i F.Jo‘raboyev tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i R.Ro’ziboyev, tuman Statistika bo‘limi boshlig‘i, tuman Moliya bo‘limi mudiri J.Saidg’aniyev, tuman Adliya bo‘limi Davlat xizmatlari markazi direktori va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda o‘zgargan ko‘cha va qabriston nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni ko‘cha va qabristonlar nomi o‘zgarishi munosabati bilan mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsinlar.

5. Mazkur qaror bilan nomlari o‘zgartirilgan ko‘cha va ularda joylashgan xonadonlarning faqarolaridan kadastr hujjatlarini qayta rasmiylashtirish, ro‘yxatga olish va boshqa turdagi davlat xizmatlari uchun davlat boji hamda to‘lovlar undirilmasdan qayta rasmiylashtirib berilishi ta’minlansin.

6. Mazkur qaror “Parkent tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini ta`minlash Parkent tumani hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” raisining o‘rinbosari A.Abdumutalov, hamda ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **Sh.Shoaxmedov**

Xalq deputatlari Parkent tuman
Kengashining
2022 yil 27 dekabrdagi
VI-60-139-10-141-K/22-son qaroriga
1-ilova

Parkent tumani komissiyasi tomonidan taqdim etilgan Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to’g’risidagi taklifga ekspert

XULOSASI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
I	III	II	IV	V	VI
1	ko‘cha	Buloqboshi MFY	nomsiz	Ehtirom ila	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	ko‘cha	Bo'rsiliq MFY	nomsiz	Hofiz Ko‘hakiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	ko‘cha	Mozorhoji MFY	nomsiz	Sag‘bon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	ko‘cha	Istiqbol MFY	nomsiz	Samimiyat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	ko‘cha	Istiqbol MFY	nomsiz	Sersavlat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	ko‘cha	Samarobod MFY	nomsiz	Mo‘jiza	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	ko‘cha	Samarobod MFY	nomsiz	Ta’lim	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	ko‘cha	Samarobod MFY	nomsiz	Sharaf	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	ko‘cha	Quyosh MFY	nomsiz	Eski Hisorak	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10	ko‘cha	Chinorbuloq MFY Kichikqo'rg'on MFY	nomsiz	Ko‘hinur	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11	ko‘cha	Yangiobod MFY	nomsiz	Halovat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12	ko‘cha	Yangiobod MFY	nomsiz	Navodil	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13	ko‘cha	Yangiobod MFY	nomsiz	Hikmat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14	ko‘cha	Yangiobod MFY	nomsiz	Faxr	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15	ko‘cha	Yangiobod MFY	nomsiz	Mehrob	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16	ko‘cha	Yangiobod MFY	nomsiz	Namozgoh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17	ko‘cha	Tojiboy Rizayev MFY	nomsiz	Imkoniyat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18	ko‘cha	Tojiboy Rizayev MFY	nomsiz	Oromgoh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
19	ko‘cha	Tojiboy Rizayev MFY	nomsiz	Umidbaxsh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
20	ko‘cha	Tojiboy Rizayev MFY	nomsiz	Xazina	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
21	ko‘cha	Hurriyat MFY	nomsiz	Tanho	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
22	ko‘cha	Nevich MFY	nomsiz	Afsona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
23	ko‘cha	Novdak MFY	nomsiz	Joziba	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
24	ko‘cha	Qizilsoy MFY	nomsiz	Hamdo’stlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
25	ko‘cha	Obod MFY	nomsiz	Maxtumquli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
26	ko‘cha	Samsarak MFY	nomsiz	Changi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
27	ko‘cha	Markaziy MFY	nomsiz	Purviqor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
28	ko‘cha	Markaziy MFY	nomsiz	Maktab	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
29	ko‘cha	Oqtepa MFY	nomsiz	Tarannum	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
30	ko‘cha	Qo'rg'ontepa MFY	nomsiz	Obod diyor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
31	ko‘cha	Qirg‘izovul MFY	nomsiz	Qadamjo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
32	ko‘cha	Fayzobod MFY	nomsiz	Andalib	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
33	ko‘cha	Chinorbuloq MFY	nomsiz	Xamsa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
34	ko‘cha	Qizilsoy MFY	nomsiz	Afzal	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
35	ko‘cha	Chinor MFY	nomsiz	Kashfiyot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
36	ko‘cha	Qirg‘izovul MFY	nomsiz	Osoyishta	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
37	ko‘cha	Yangi Sanganak MFY	nomsiz	Barqaror	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
38	ko‘cha	Chotqol MFY	nomsiz	Mehribon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
39	ko‘cha	Qizilsoy MFY	nomsiz	Imkon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
40	ko‘cha	Chinorbuloq MFY	nomsiz	Toshkent	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
41	ko‘cha	Chinorli MFY	nomsiz	Osiyo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
42	ko‘cha	Guliston MFY	nomsiz	Bilimgoh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
43	ko‘cha	Xurriyat MFY	nomsiz	Xushvaqt	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
44	ko‘cha	Shampan MFY	nomsiz	Ko‘ngilobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
45	ko‘cha	Yangiobod MFY	nomsiz	Huzurbaxsh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
46	ko‘cha	Yangiobod MFY	nomsiz	Munavvar tong	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
47	ko‘cha	Qirg‘izovul MFY	nomsiz	Beg‘ubor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
48	ko‘cha	Kichikqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Dunyo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
49	ko‘cha	Kichikqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Muhabbat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
50	ko‘cha	Samsarak MFY	nomsiz	Nufuzli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
51	ko‘cha	Samsarak MFY	nomsiz	Alloma	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
52	ko‘cha	Qayilma MFY	nomsiz	Shohona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
53	ko‘cha	Samsarak MFY	nomsiz	Koshona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
54	ko‘cha	Bo‘ston MFY	Bog‘ishamol	Xolis	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
55	ko‘cha	Istiqlol MFY	Guliston	Dilband	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
56	ko‘cha	Xo‘ja MFY	Sohibkor	Ozoda	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
57	ko‘cha	Olmazor MFY	O‘qituvchilar	Ustoz	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
58	ko‘cha	Bodomtepa, MFY Quruqsoy MFY	Shifokorlar	Tabobat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
59	ko‘cha	Fayzobod MFY	Новая	Zamona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
60	ko‘cha	Fayzobod MFY	Пушкина	Do‘rmon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
61	ko‘cha	Fayzobod MFY	Театралная	Oltinkon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
62	ko‘cha	Tolbuloq MFY	Клубная	Havas	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
63	ko‘cha	Tolbuloq MFY	С.Рахимов	Tantana	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Toshkent viloyati Parkent tumanidagi davlat reyestriga kirtilmagan qabristonlar nomlari ro‘yxati

1	Qabriston	Qo‘shshukur MFY	nomsiz	Mirbobo	1972-yilda ochilgan Mahalliy aholi va nuroniylarning ma’lumotlari asosida: Mirbobo XVII asrda yashagan diniy qo‘shiqlar aytib, islom dinini ulug‘lab qalandarlik qilgan so‘fiy bo‘lgan
2	Qabriston	Xo‘ja MFY	nomsiz	Bobo Mochin	Yassaviy tariqati ulug‘ piri shayx va vali Bobo Mochin Xazrat Ahror valiyning ota tomondan avlodi Abu bakr Siddiq naslidandir deyiladi
3	Qabriston	O‘choq MFY	nomsiz	Sayid Mavlono	“Said Mavlon” (Said ota) ziyoratgohi – Parkent shahri O‘choq mahalla fuqarolari yig‘inida joylashgan, VII-XIII asrlarda barpo etilgan “Said Mavlon” (Said ota) ziyoratgohi mavjud. Ma’lumotlarga qaraganda, o‘tgan asrning 1930-yillarda barpo etilgan va tumanning diqqatga sazovor joylardan biri. “Said Mavlon” ziyoratgohining nomlanishiga sabab, ushbu ziyoratgohga birinchi bo‘lib dafn etilgan va “Said Mavlon” deb atalgan. Rivoyatga ko‘ra u kishiavliyo bo‘lgan, xalqqa halim pishirib tarqatgan. Marhumning ism sharifi Mavlonov Said bo‘lgan. Shu sababli o‘sha davrdan boshlab qabriston nomi “Said Mavlon” deb atalgan. Ota bobolarimizdan qolgan rivoyatga ko‘ra “Said ota” avliyo bo‘lgan. U kishi xalqqa halim pishirib tarqatgan. Pishirgan halimini bemor odamga bersa zumda shifo topgan.
4	Qabriston	O‘choq MFY	nomsiz	Xristian (rus)	Ruslar qabristoni
5	Qabriston	Surxi MFY	nomsiz	Surxi	XV-XVI asrlarda yuzaga kelgan Movarounnahr o‘lkasida yuzaga kelgan davlatlar tarixi haqida yozilgan yozma manbalarda turkiy-o‘zbek elatining urug‘-qabilalari shajaralari bo‘yicha ma’lumotlar ko‘plab uchraydi. Jumladan, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarida quyidagi qabila-urug‘ nomlari uchraydi: *surxi (surqi)* kabi urug‘ nomlari qayd etilgan. Asarda ularning ba’zilari haqida izohli ma’lumotlar ham berilgan. Qabriston nomi shu urug‘ nomidan kelib chiqqan
6	Qabriston	Oybek MFY	nomsiz	Bohangar buva	“Bohangarbuva” ziyoratgohi – qadimda 7 aka-uka bo‘lib, ular Zangi buva, Bohangarbuva, Bobo Mochin buva, Zarkat buva, Parpata buva, Oq ota buva, Bolpushta buvalar bo‘lgan.Ular Makkai-Madina shaxridan kelib, “Bohangar buva” joylashgan manzilda yashagan. Keyinchalik aka ukalar, uy-joy qilib tarqashgan. “Zangi buva” Zangiotada qolgan. Bobo Mochin buva Parkent tumanining “Xo‘ja” mahallasiga o‘tib, bu yerda suv yo‘q, qanday yashayman deganida. Sen shu yerda qolgin men o‘zim senga suvni yuboraman deb Zarkat buva soy yoqalab ketayotib xassasini urgan joylardan buloq suvlari chiqgan. Shu kunga qadar ushbu buloq suvlaridan aholi foydalanib kelishadi. “Zarkat buva” esa Chotqol tog‘ tizmalarining g‘arbiy yonboshining yuqori qismida joylashgan. “Bohangar buva” aka-ukalarining eng kattasi bo‘lib, aka-ukalari, doim “Bohangar buva” yashaydigan joyga kelib yig‘ilishib turishgan. “Bohangar buva” shox shabbalardan chayla yasab, temirchilik bilan shug‘ullangan. Xassasi bilan yurgan joylardan qayrog‘ochlar o‘sib chiqgan. Umri davomida shu yerda yashab vafot etgan. “Bohangar buva” qabristoniga farzandtalablar, turli kasalliklarga chalingalar ziyorat etishsa shifo topib ketishgan.
7	Qabriston	Objuvoz MFY	nomsiz	Bolpushta	Qadimda 7 aka-uka bo‘lib, ular Zangi buva, Bohangar buva, Bobo Mochin buva, Zarkat buva, Parpata buva, Oq ota buva, Bolpushta buvalar bo‘lgan.Ular Makkai-Madina shaxridan kelib, “Boxangar buva” joylashgan manzilda yashagan. Keyinchalik aka ukalar, uy-joy qilib tarqashgan
8	Qabriston	Bo‘rsiliq MFY	nomsiz	Boboshayx	Qaffol Shoshiy (Hazrati imom),Shayx Zayniddin bobo, Shayx Xovand Tohur maqbaralar majmui kabi yodgorliklar turli davr voqeahodisalar ta'sirida shakllangan bo‘lib, o‘zining geografik va tarixiyjoylashuvi bilan boshqalardan ajralib turadi. Toshkent viloyati Parkent tumani hududida joylashgan joyda shu ulug‘ bobolar zotidan bo‘lgan shayx istiqomat qilganligi haqida rivoyatlar mavjud. O‘z davrida ilm fan va madaniyatning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan.
9	Qabriston	Buloqboshi MFY	nomsiz	Mozorimulla	Rivoyatlar va mahalliy nuroniylarning ma’lumotlari asosida aniqlandi: Ushbu hududda islom dini taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan mullalar so‘fiylar dafn etilgan su sababdan “Mozorimulla” mullalar mozori deb nomlangan
10	Qabriston	Qo‘lichi MFY	nomsiz	Qo‘lichi	Tarixiy ma’lumotlar va mahalliy nuroniylar fikrlari asosida aniqlandi. Qo‘lichi mahallasi geografik o‘rniga e’tibor berilsa, chuqurlikda qadimda ko‘l atrofida joylashgan keyinchalik xalq orasida ko‘l ichi jumlasi qo‘lichi nomiga o‘zgargan. Qabriston nomi ham shu mahalla nomidan kelib chiqqan.
11	Qabriston	Soy MFY	nomsiz	Tanbalak	Rivoyatlarga asoslangan holda ma’lumot aniqlandi: Parkent tumani hududidan oqib o‘tuvchi soy bo‘yiga qadimda aholiga suv chiqarish uchun to‘siq ya’ni to‘g‘on quriladi mahalliy aholi bu to‘siqni tanbalangan yani to‘silgan joy deb ataydi. Keyinchalik shu jumla joy nomiga aylanib ketadi. Qabriston nomi ham shu nom asosida qo‘yilgan
12	Qabriston	Samsarak MFY	nomsiz	Qoramozor	XVIII asrda ochilgan mozor Diniy bilimlar bilimdonlari va qorilar dafn etilgan joy bo‘lgani uchun qorimozor deb nomlangan keyinchalik aholi o‘rtasida “Qoramozor” nomiga aylanib ketgan va shu nom bilan qolgan
13	Qabriston	Guliston MFY	nomsiz	Oqtosh ota	1935-yil ochilgan Bu nom O‘zbekiston Madaniy meros agentligi tomonidan berilgan.
14	Qabriston	Oq tepa MFY	nomsiz	Oqqush ota	1818-yil ochilgan Rivoyatlar va nuroniylarning ma’lumotlari asosida aniqlandi: Qabristonga birinchi bo‘lib dafn etilayotgan inson dafn marosimi vaqtida qabriston hududiga oqqush kelib qo‘ngan va qabr ustidan uzoq vaqt uchib ketmagan. Bu voqea dafn etilgan inson va oqqush voqeasi bilan bog‘lanib, qabristonning shunday nomlanishiga sabab bo‘lgan.
15	Qabriston	Bo‘ston MFY	nomsiz	Nurboyxalfa	XVI asr Nurboy xalfa xalfa nomi bilan tanilgan Diniy maktab o‘qituvchisi shariat bilimlari bilimdoni nomi bilan bog‘liq
16	Qabriston	Chotqol MFY	nomsiz	Chotqol	1988- yilda ochilgan qabriston nomlanishi Parkent tumani Chotqol MFY nomidan kelib chiqib qo‘yilgan.
17	Qabriston	Quyosh SHFY	nomsiz	Toshkan boy ota	Qabristonning bu nom bilan nomlanishiga shu qabriston ochilgan vaqtdan 2016-yilgacha go‘rkovlik qilgan Toshkanboy otaning qabriston uchun juda katta mehnatlari singganligi sabab bo’lgan Mahalliy aholi ham qabristonning shu nom bilan nomlanishi tarafdori. Toshkanboy otaning o‘zi ham shu qabristonga dafn etilgan.
18	Qabriston	Kumushkon MFY	nomsiz	Shayx Majid	Rivoyatlarga ko‘ra Kumushkon qishlog‘ida Shayx Majid ismli diniy bilimlar bilimdoni yashab o‘tgan.Qishloq ahliha islom dini haqida haqiqiy, ishonchli bilimlarni berib kelgan shariat bilimdoni bo‘lgan
19	Qabriston	Olmazor MFY	nomsiz	Navro‘ztepa	1972-yilda ochilgan ushbu qabriston nomlanishiga qishloq aholisining qadimdan Navro‘z bayramini nishonlab keladigan hudud nomi sabab bo‘lgan. Shu hududga yaqin joylashgan qabriston nomiga ham shu joy nomi sabab bo‘lgan.
20	Qabriston	Teman MFY	nomsiz	Changi	1910-yilda ochilgan qabriston nomlanishida Parkent tumani Changi qishlog‘ining nomi asos bo‘lgan

21	Qabriston	Nurobod MFY	nomsiz	Sumcha	1981-yilda ochilgan qabristonning nomlanishi Parkent tumani Changi qishlog‘I Sumcha hududi nomidan kelib chiqqan.
22	Qabriston	Istiqlol MFY	nomsiz	Zarkent	XVII asrga mansub qabriston nomi Parkent tumani qadimiy Zarkent qishlog‘I nomidan kelib chiqqan hamda shu qishloq hududida shu nomli ziyoratgoh bor
23	Qabriston	Chashma MFY	nomsiz	Yuqori	1890-yilda ochilgan ushbu qabriston nomlanishiga geografik joylashuvi sabab bo‘lgan. Parkent tumani So‘qoq hududining yuqori qismida joylashgani sababli shunday nomlangan
24	Qabriston	Chinor MFY	nomsiz	Chinor	1975-yilda ochilgan Ushbu qabristonning bu nom bilan nomlanishiga Mahalla fuqarolar yig‘ini nomining tarixi bilqan bog‘liq
25	Qabriston	Ulug‘bek MFY	nomsiz	So‘qoq	2000-yilda ochilgan bu qabristonnning nomlanishi Parkent tumani So‘qoq qishlog‘ining tarixi bilan bog‘liq.
26	Qabriston	Nevich MFY	nomsiz	Juma buva	XVIII asr Juma buva degan diniy bilimlar bilimdoni bo‘lgan inson shu qabristonga birinchi bo‘lib dafn etilgan
27	Qabriston	Qizilsoy MFY	nomsiz	Qo‘lbi	1970-ochilgan qabriston Qo‘lbisoy soyining yaqinida joylashgani uchun shunday nomlangan
28	Qabriston	Yangi Sanganak MFY	nomsiz	G‘oyib ota	XVIII asrga mansub qabriston nomlanishi shu yerda yashagan diniy bilimlar bilimdoni G‘oyib ota nomi bilan bog‘liq.
29	Qabriston	Nevich MFY	nomsiz	Buyung‘ur	XVII asrga mansub Buyung‘ur -forschada buva degan ma’noni anglatadi,qabriston buvalar makoni ma’nosini anglatadi.
30	Qabriston	Bozorboshi MFY	nomsiz	Tursunboy xalfa	XVIII asr Tursunboy xalfa nomi bilan tanilgan Diniy maktab o‘qituvchisi shariat bilimlari bilimdoni nomi bilan bog‘liq Xalfa so‘zi islom dini haqida bilim beruvchi ustoz maktabdor degan ma’noni beradi. Parkent tumani hududida ilk diniy maktabdorlardan birining nomi bilan bog’liq
31	Qabriston	Chinorli MFY	nomsiz	Hazrati Mir	XVIII asrga mansub qabristonga xonliklar davrida yashagan amirlarga mansub inson dafn etilishi sabab bo‘lgan. Hazrati Amir jumlasi keyinchalik fonetik o‘zgarishga uchrab, Xazrati Mir nomini olgan.
32	Qabriston	Chinorli MFY	nomsiz	Oqil shayx	XIX asrga mansub qabristonga shu nom bilan tanilgan diniy bilimlar bilimdoni dafn etilgan.
33	Qabriston	Sayid ota	nomsiz	Sayidota	XIV asrga mansub qabriston tarixi Ohagaron tumani hududida joylashgan Shodmalik ota maqbarasi tarixi bilan bog‘lanadi ya’ni Shodmalik ota va Sayid ota aka-uka bo‘lishgan deyiladi.
34	Qabriston	Tolbuloq MFY	nomsiz	Chavlisoy	Bu qabriston nomlanishiga shu qabriston joylashgan joy nomi sabab bo‘lgan.